

INCLUSIVE TA'LIM TIZIMIDA CHET TILLARINI O'QITISH USLUBLARI VA JARAYONLARI

Ro'zaxon Qalandarova

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Roman-german filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi
@rozaxonqalandarovagmail*

Xolboyeva Dildora

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xorijiy tillar va adabiyoti 2-fakulteti talabasi.
xolboyeva dildoraxolboyeva588@gmail.com*

Annotatsiya: *Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatda ko'plab yoshlar uchun chet tillarini o'zlashtirib borish qiyinchilik tug'dirmaydi, shunday ekan bu maqolada ham alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar qaysi metodlar orqali tillarni o'rgana olishlari va olinadigan natijalar haqida so'z olib boriladi.*

Kalit so'zlar: *Audiovisual, multimediya, materiallar, surdopedagogika, tiflopedagogika, brayl alifbosi.*

Abstract: *In today's developing society, learning foreign languages is not a difficult for many young people, so this article will discuss the methods through which children with special educational needs can learn languages and the results they can achieve.*

Keywords: *audiovisual, materials, multimedia materials, surdopedagogy, typhlopedagogy, braille alphabet.*

Kirish:

Malumot o'rnida qayd etishimiz kerakki, "inklyuziv ta'lim" bu (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, qamrab olmoq kabi ma'nolarni beradi. Ya'ni nogironligi bo'lgan bolalar uchun alohida ta'lim tizimni tashkillashtirish, ta'lim muassasalarni barpo qilish, fanlarni va tillarni o'zlashtirishlari uchun zarur shart - sharoitlarni yaratish kabilar hisoblanadi. 2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha bir nechta asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutiladi va bularning barchasi aytilayotgan bolalarning bilim darajasini yanada mustahkamlashga qaratiladi. Ma'lumot o'rnida, hozirda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda.

Keyingi fikrlarda keltiriladiki, inklyuziv ta'limning maqsadi samarali metodlarni qo'llash orqali, maxsus pedagoglar jalb etilgan holda moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish va sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Bilamizki, imkoniyati cheklangan

bolalarning ko'pchiligida bilimni va yangiliklarni qabul qilishlari har xil bo'ladi. Masalan : maxsus pedagogika tarmog'i hisoblangan SURDOPEDAGOGIKA (lot."surdus"-karlik) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarning rivojlanishi, ta'lim tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda aynan shu turdagi o'quvchilar uchun chet tillarini ya'ni ingliz tilini samarali o'rgatish usullari keltirilgan. Birinchi navbatda komputer texnologiyalardan foydalanish.

-Til o'qituvchisi internetdagi multimediali materiallardan mavzuga doir bo'lgan birini tanlab olishi.

-Eshitish qobiliyati yo'qolgan bolalarning bilim saviyasini oshirish uchun boshqa hududdagi yoki maktabdagi shunday bolalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish imkonini yaratish.

-Internet saytlardagi bu turdagi bolalar uchun audiovisual materiallar va adabiyotlardan foydalanish.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, eshitishda nuqsoni bor o'quvchilar ko'rish va ongli ravishda o'ylab ko'rish orqali chet tilini o'rgana olishlari mumkin.Ya'ni ko'rgazmali tashkil etilgan darslardan olganlarini doskada yoki daftarlarida yoritib berishi bilan namoyon qilishadi. Alohida ta'limga muhtoj bolalarning yana bir turi ko'zi ojizlardir. Huddi yuqorida keltirib o'tilganidek bu kabi turdagi bolalar va kattalar faoliyati, ularni tarbiyalash va mehnatga tayyorlash masalalari haqida TIFLOPEDAGOGIKA (yunoncha,typhlos ko'r va pedagogika)fani o'rganadi. Albatta bunday nuqsonli bolalarga ta'lim berishda mutaxassis o'qituvchilar tayyorlanadi, bu fikrlarga qo'shimcha tarzda alohida metodlar borligi aytib o'tiladi.

-Brayl alifbosi yordamida tuzilgan holda nashr etilgan kitob va ensiklopedialardan foydalanish,bu kabi kitoblardan bolalar bemalol o'qiy oladilar va tushuna oladilar.

-Og'zaki nutq ushbu faoliyat gapirish,eshitish va tushunish darajasi oshib borishiga yordam beradi.Shu o'rinda o'qituvchining o'rni beqiyos rol o'ynaydi,bu turdagi bolalarga og'zaki mashg'ulot bilan shug'ullanib borishini ta'minlash, ta'kidlash albatta pedagoglarning vazifasidir.

-didaktik o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar qo'llanilishi.

Keltirilganlar natijasida maxsus bolalarda ilmga bo'lgan ishtiyog'i ortadi va yaxshi natijalar ko'rsatishadi.

Alohida ta'limga muhtoj bolalarning qatlamlari yetarlicha qo'llab -quvvatlansa, inklyuziv ta'lim shart-sharoitlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlansa, o'zlarining ta'lim yo'lida yuqori muvaffaqiyatlarga erishishi mumkinligini tan olishimiz mumkin. Aynan til o'rgatish bo'yicha ingliz tilini misol qilib olgan bo'lsak, umuman olganda tillarni o'rgatish juda interaktiv bo'lishi kerak, shuningdek, bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ,qo'shiq aytishga, o'ynashga, rasm chizishga yoki berilgan ma'lumotni qanday yetkazilayotganiga e'tibor berish kutilgan natijalarni olishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ta'limda kreativ yondashuv yo'llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy OnLine konferensiyasi materiallari. Jizzax 2021-yil.
2. Maxsus pedagogika (surdopedagogika) o'quv qo'llanma . Toshkent 2017-yil. Mamarajabova Zulfiya Narbaevna.
3. Inklyusiv ta'lim :nazariya va metodika.F.U.Qodirova, D,A,Pulatova Chirchiq-20224. 60112700-maxsus pedagogika: tiflopedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishi Chirchiq -20235. Inklyusiv ta'limda nogiron bolalarni o'qitish va tarbiyalash.Author of article Nodira Latipova,Panjizoda September 2021.